ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

UDK: 004.8:330.3

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MODELLARI

Abdullayev Sherzod Sherali o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sherzodabdullayev3570@gmail.com
ORCID: 0009-0002-7899-2305

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishdagi roli o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun modellashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etish korxonalar samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyot rivojlanishini jadallashtirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, Big Data, iqtisodiy samaradorlik, modellashtirish, avtomatlashtirish, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение технологий искусственного интеллекта в развитии цифровой экономики. В ходе исследования проанализировано влияние искусственного интеллекта на оптимизацию экономических процессов, повышение производительности и совершенствование управленческих решений. Также применены методы экономического моделирования для оценки эффективности. Результаты исследования показывают, что внедрение технологий искусственного интеллекта способствует повышению эффективности предприятий и ускорению развития цифровой экономики.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, большие данные, экономическая эффективность, моделирование, автоматизация, инновации.

Abstract. This article analyzes the role and importance of artificial intelligence technologies in the development of the digital economy. The study examines the impact of AI on optimizing economic processes, improving production efficiency, and enhancing decision-making systems. Economic modeling methods were applied to evaluate efficiency. The results show that the implementation of artificial intelligence technologies increases enterprise performance and accelerates the development of the digital economy.

Keywords: artificial intelligence, digital economy, big data, economic efficiency, modeling, automation, innovation.

ISSN 3030-3907

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jahon iqtisodiyotida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. An’anaviy iqtisodiy model asta-sekin raqamli shaklga o‘tib, yangi iqtisodiy muhit – raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda [1]. Ushbu modelda asosiy e’tibor axborot resurslari va zamonaviy texnologiyalar yordamida iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirishga qaratiladi.

Raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida sun’iy intellekt texnologiyalari alohida o‘rin egallaydi. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi [3]. Natijada ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlik oshadi.

Bugungi kunda ma’lumotlar muhim iqtisodiy resursga aylanib bormoqda. Katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish orqali korxonalar bozor tendensiyalarini aniqlash va mijozlar ehtiyojlarini prognoz qilish imkoniga ega bo‘lmoqda [4]. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni avtomatlashtirib, qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. AQSh, Xitoy va Yevropa davlatlarida ushbu texnologiyalarga katta miqdorda investitsiyalar kiritilmoqda va bu global raqobatni kuchaytirmoqda [2,5].

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [6].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini ilmiy asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv, taqqoslash usuli, statistik tahlil va modellashtirish metodlaridan foydalanildi [8,9].

Birinchi bosqichda sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot tushunchalarining nazariy asoslari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Bunda xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda iqtisodiy tadqiqotlar natijalari o‘rganildi [10].

ISSN 3030-3907

Ushbu bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotning turli sohalariga ta’sirini aniqlash maqsadida mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi [11].

Ikkinchi bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilindi. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari va ularning amaliy natijalari o‘rganildi [12]. Tahlil jarayonida turli kompaniyalar va tashkilotlarning tajribalari solishtirilib, sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri aniqlashtirildi [13].

Uchinchi bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun iqtisodiy modellashtirish usuli qo‘llanildi. Ushbu modelda iqtisodiy samaradorlik quyidagi umumiy ko‘rinishdagi funksional bog‘lanish orqali ifodalanadi [14], [15]:

$$E = \frac{P - C}{C}; \qquad (1)$$


bu yerda:

E –iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi,

P – sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash natijasida olingan iqtisodiy natija,

C – texnologiyani joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar.

Mazkur model orqali sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlikning oshish darajasi baholandi. Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish modeli 1-**rasmda** tasvirlangan.



1-rasm. Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy samaradorlik modeli.

Shuningdek, tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari ham

ISSN 3030-3907

tahlil qilindi. Ushbu jarayonda soliq tizimi, elektron tijorat, transport va qishloq xo‘jaligi sohalarida sun’iy intellektdan foydalanish tajribalari o‘rganildi va natijalar umumlashtirildi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar muhim iqtisodiy resursga aylanib bormoqda. Korxonalar va tashkilotlar katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish orqali bozor tendensiyalarini aniqlash, mijozlarning ehtiyojlarini prognoz qilish va samarali biznes strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa ushbu ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirib, iqtisodiy qarorlarni yanada aniq va tez qabul qilishga yordam beradi. Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish modeli 2-rasmda keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga joriy etilishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkonini beradi. Natijada korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi hamda operatsion xarajatlar kamayadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari bir qator yo‘nalishlarda samarali qo‘llanilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, logistika tizimlarini optimallashtirish, moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish hamda elektron tijorat platformalarida mijozlarning xatti-harakatlarini prognoz qilish kabi vazifalarda sun’iy intellektdan keng foydalanilmoqda. Sun’iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy qo‘llanilish yo‘nalishlari **1-jadvalda** keltirilgan.

1-jadval.


Sun’iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlariga ta’siri.

1-jadval. Sun’iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlariga ta’siri

Tarmoqlar	Sun’iy intellektning ta’siri
	– Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish – Sifat nazorati va nuqsonlarni aniqlash
	– Kredit risklarini tahlil etish – Kiberxavfsizlikni mustahk'amlash
Transport va logistika	– Lojistika jarayonlarini optimallashtirish – Transport vositalarini kuzatish va boshqarish
	– Tavsiya tizimlarini ishlab chiqish – Shaxsiylashtirilgan marketing
Elektron tijorat 	– Tavsiya tizimlarini ishlab chiqish – Shaxsiylashtirilgan marketing

ISSN 3030-3907

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, resurslardan foydalanish darajasi yaxshilanadi va boshqaruv jarayonlari yanada takomillashadi. Ayniqsa, elektron tijorat sohasida sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tavsiya tizimlari foydalanuvchilarning qiziqishlarini aniqlash orqali savdo hajmini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, logistika tizimlarida sun’iy intellekt transport yo‘nalishlarini optimallashtirish va yetkazib berish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Sun’iy intellekt iqtisodiyotga ta’siri 2-**rasmda** tasvirlangan.



2-rasm. Sun’iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlariga ta’sir sxemasi.

Moliyaviy sektor ham sun’iy intellekt texnologiyalaridan faol foydalanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bank va moliyaviy tashkilotlarda sun’iy intellekt yordamida kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar tahlilchilari, sun’iy intellekt muhandislari va kiberxavfsizlik mutaxassislari kabi yangi kasblarga talab ortib bormoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, soliq tizimini avtomatlashtirish va elektron tijorat platformalarini rivojlantirish orqali raqamli iqtisodiyotning samaradorligi

ISSN 3030-3907


oshirilmoqda. O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot sohalariga ta’siri **2-jadvalda** keltirilgan.

2-jadval.

O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilish yo‘nalishlari.

Yo‘nalishlar	Qo‘llanilayotgan sohalar	Misollar
Sun’iy intellekt asosidagi platformalar	– Ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat xizmatlari	– UZTELECOM AI, Ezgu niyat, MedAI
Ma’lumotlar tahlili va katta ma’lumotlar (Big Data)	– Bank-moliya, marketing, sanoat	– Aloqabank, click.uz, Korzinka.uz
Avtomatlashtirish va robototexnika	– Ishlab chiqarish, logistika	– UzAuto Motors, Smart logistic
Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)	– Davlat xizmatlari, tarjima	– My.gov.uz (AI bot), UzTranslat
Kiberxavfsizlik	– Banklar, davlat organlari	– National CERT, Kibermuhofaza
Sun’iy intellekt in qishloq xo’jaligida	– Agrotexnologiyalar, monitoring	– Aqlli sug‘orish tizimlari

Shuningdek, tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash modeli ishlab chiqildi. Ushbu model asosida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlik darajasining oshishi kuzatiladi. Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish modeli 3-**rasmda** tasvirlangan.



3-rasm. Raqamli iqtisodiyotning asosiy texnologik komponentlari.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki innovatsion rivojlanishni ham jadallashtiradi. Shu sababli sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning o‘zaro integratsiyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

ISSN 3030-3907

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt yordamida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada korxonalar faoliyatining samaradorligi oshadi va iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasi yaxshilanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish, moliya, elektron tijorat va transport kabi sohalarda qo‘llash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish hamda biznes jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotning turli sohalarini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy axborot infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga keng joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age*. – 2014.
2. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – 2016.
3. Davenport T.H., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World // HBR – 2018.
4. Manyika J. et al. *Artificial Intelligence: The Next Digital Frontier?* – 2017.
5. OECD. *Artificial Intelligence in Society*. – 2019.
6. World Bank. *World Development Report 2021*. – 2021.
7. Bughin J. et al. *Notes from the AI Frontier*. – 2018.
8. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – Pearson, 2020.
9. Wooldridge M. *A Brief History of Artificial Intelligence*. – Flatiron Books, 2021.
10. UNCTAD. *Digital Economy Report 2019*. – United Nations, 2019.
11. Agrawal A., Gans J., Goldfarb A. *Prediction Machines*. – Harvard Business Review Press, 2018.

ISSN 3030-3907

12. Brynjolfsson E., Rock D., Syverson C. Artificial Intelligence and the Modern Productivity Paradox // *NBER*, 2017.
13. McKinsey Global Institute. *The Age of AI: Artificial Intelligence and the Future of Work*. – 2021.
14. OECD. *Digital Economy Outlook 2020*. – Paris, 2020.
15. World Economic Forum. *Shaping the Future of Digital Economy*. – 2020.

ISSN 3030-3907